

AT "Aloqabank"
Boshqaruvi yig'ilishining
2024-yil 21 avgust dagi
533 - sonli bayoniga
5 - ilova

**"Jismoniy shaxslarni kreditlash tartibi"ga kiritilayotgan o'zgartirish va
qo'shimchalar**

AT "Aloqabank" Boshqaruvi yig'ilishining 2024-yil 1-iyuldagi 426-son bayoni bilan tasdiqlangan va 906-son bilan ro'yxatga olingan "Jismoniy shaxslarni kreditlash tartibi" (bundan buyon matnda "Tartib" deb yuritiladi)ga quyidagi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilsin:

I. Tartibning "VII. Kreditlarning monitoringi, kredit ta'minoti bilan bog'liq jarayonlar va kreditdan maqsadli foydalanishni nazorat qilish" bo'limidagi 7.19-bandi quyidagi yangi tahrirda bayon etilsin:

"7.19. Uchinchi shaxslarning kafilligi yoki Kreditning qaytmaslik xataridan sug'urta polisi Kredit summasi **50 (ellik) million so'mdan oshmagan** hollardagina asosiy ta'minot sifatida qabul qilinishi mumkin, Kredit miqdori **50 (ellik) million so'mdan oshgan** hollarda ta'minot sifatida likvidli mol-mulk garovi olinishi lozim (jismoniy shaxslarga ajratiladigan mikroqarzlar bundan mustasno)."

II. Tartibga kiritilayotgan ushbu o'zgartirish va qo'shimchalar o'rnatilgan tartibda tasdiqlangan hamda ro'yxatga olingan kundan boshlab kuchga kiradi.